

## TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

*Zafarjon Xamraqulov*  
*Qo'qon DPI dotsenti v.b.*

### **Annotatsiya**

Maqolada talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirish bugungi kundagi eng muhim masalalardan bir sifatida ko'rilgan va xulosaviy yechimlar sifatida fikrlar berilgan

**Kalit so'zlar:** Huquq, qonun, huquqiy madaniyat, taraqqiyot, strategiya, yuksalish, qadriyat.

Jahon tajribasidan ma'lumki, har bir xalq o'ziga xos ma'naviy merosga, mentalitetga, qadriyatlarga ega. Millatning huquqiy ongi ham shunday boylik hisoblanadi. Davlatlar taraqqiyot yo'llarini belgilab olar ekanlar, ma'naviy meros, an'analar, qadriyatlar, shuningdek, milliy huquqiy ongni ham yuksaltirish yo'lidan boradilar. Zero huquqiy ongning yuqori darajasi mamlakatdagi demokratik jarayonlarni boshqaradi. Tinchlik va inson huquqlarining tantanasini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Huqumati qarori bilan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Dasturga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida inson huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari o'quv kurslarini tashkil etish vazifasi belgilandi. Shuningdek, huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq qilish rejalashtirildi[1,].

2019 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining 406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunda ta'lim tashkilotlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga doir faoliyatda ishtirok etishi belgilab qo'yilgan[2,]. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish yuzasidan 2022-2023 yillarda bajarilishi zarur bo'lgan ko'pgina masalalar belgilangan. Unga ko'ra, oilada va ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi", "Konstitutsiyaviy huquq oyligi" tadbirlarini o'tkazish, yoshlarni huquqiy savodxonlikka oid minimal talablar bo'yicha o'qitish va ularning huquqiy bilimlarini baholash kabi chora-tadbirlar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatdagi yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, qonunlarga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish bo'yicha ko'rsatmalar berdi[4,].

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'prog'ini 30 yoshga etmaganlar tashkil etadi. Ularning 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan qismi yoshlar deb ataluvchi ijtimoiy qatlamni tashkil qiladi. O'zbekiston Prezidenti aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni ularning bolaligidan boshlash kerakligi xususida gapirgan hamda butun umri davomida rivojlantirib borishga ko'rsatma bergan. Amaliyot ko'rsatmoqdaki, o'zlashtirilgan huquqiy bilimlarni chuqur tasavvur qilish va keng mushohada qilishni boshlash inson umrining yoshlik davri, ya'ni 14-30 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda inson shaxs sifatida o'z huquq va erkinliklarini his qila boshlaydi. Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intiladi. Yoshlarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish, ularning huquqiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish orqali huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun mazkur yosh oralig'i qulay davr sanaladi.

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan huquqiy tadbirlar yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qilishini amaliyot isbotlamoqda. Buni nazarda tutgan holda, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-axloqiy tadbirlar rejalari doirasiga huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazish kiritilmoqda. Bunday uchrashuvlardan yoshlar tegishli xulosalar oladilar. Maktablar va boshqa ta'lim muassasalarining ta'lim oluvchilari o'rtasida o'tkaziladigan huquqiy bilimdonlikni oshirishga qaratilgan musobaqalarning ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda taqdim etiladigan sahna ko'rinishlaridan tomoshabinlar katta taassurot oladilar. Savol-javoblardagi bilimlar ham huquqiy madaniyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin bunday tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar huquqiy madaniyatning yuksalishi uchun etarli emas. Zero bu bilan yuqori natijalarga erishish mushkul bo'ladi.

Mamlakatdagi jinoyatchilikni kamaytirish, yoshlarda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish uchun davlat dasturlarida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Davlat dasturlari hokimiyatning barcha tuzilmalariga yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish uchun bajarishlari uchun tegishli vazifalarni yuklaydi. Vazifalarning bajarilishi tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Bunda har bir davlat organi, davlat muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, keng jamoatchilik yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha birgalikda harakat qiladi.

Jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda keng jamoatchilik, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birga ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etishi zarur. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, ta'limning barcha bosqichlarida aholining huquqiy bilimlarini oshirish, yosh avlodga halollik va burch tushunchalarini singdirish, huquqiy mazmundagi tadbirlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etish, faqat huquqiy bilimlar bilan cheklanmasdan, har bir fuqaroda o'z Vatanidan faxrlanish hissi shakllanishiga erishish muhim vazifalar hisoblanadi.

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Ta'lim tashkilotlarida jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish ishlarida samaradorlikni yuqori bosqichga olib chiqish yuridik ta'limni yanada takomillashtirish, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashni zaruratga aylantiradi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. <https://daryo.uz/k/2022/05/19/vazirlar-mahkamasi-qarori-bilan-jamiyatda-huquqiy-madaniyatni-yuksaltirish-boyicha-chora-tadbirlar-dasturi-tasdiqlandi>
2. <https://lex.uz/docs/3026246> O'zbekiston Respublikasining 406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 10-modda.
3. [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/jamiyatda\\_huquqiy\\_madaniyat\\_ni\\_yuksaltirish\\_qanday\\_rejalashtirilmoqda](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/jamiyatda_huquqiy_madaniyat_ni_yuksaltirish_qanday_rejalashtirilmoqda)
4. <https://lex.uz/docs/4149765>

